

87. Ko'paytirish komponentlari

Yondosh mavzu:
jamoa.

Ko'paytuvchi,
ko'paytma.



| | | | | |
|---|---|----|----|---|
| 2 | 5 | 9 | 14 | ? |
| 4 | 8 | 13 | 19 | ? |



1. Ifodani ko'paytirish yordamida yozing va uning qiymatini toping. Sinf o'quvchilariga uch nafar nafaqaxo'rni ziyorat qilib kelish topshirildi. Har bir nafaqaxo'rning uyiga 4 kishidan iborat guruh tashrif buyurdi. Hammasi bo'lib necha kishi nafaqaxo'rlarni ziyorat qildi.



Ko'paytirish komponentlari

ko'paytuvchi ko'paytuvchi

$$2 \cdot 4 = 8$$

ko'paytma

2 · 4 ifoda ham ko'paytma deb ataladi.



2. Ko'paytirish yordamida yozing.

$$3 + 3 + 3 + 3 + 3$$

$$2 + 2 + 2$$

$$6 + 6 + 6 + 6$$



3. Ko'paytirish yordamida yozing.

- a) 6 soni 8 marta olindi.
- b) 12 soni 3 marta olindi.
- c) 20 soni m marta olindi.
- d) n soni 5 marta olindi.



4. Ko'paytirish bilan almashtiring.

a) $\underbrace{5 + 5 + 5 + \dots + 5}_{20 \text{ marta}}$

b) $\underbrace{7 + 7 + 7 + \dots + 7}_{45 \text{ marta}}$

d) $\underbrace{b + b + b + \dots + b}_{62 \text{ marta}}$




e) $\underbrace{c + c + c + \dots + c}_n$



- 5.** Stendda tanlov g'oliblari fotosurati joylashtirilgan. Agar 4 qatorning har birida 10 tadan fotosurat joylashgan bo'lsa, stendga nechta fotosurat joylashtirilgan?
- 6.** A'llochilar slyotiga 2-sinflardan 215 o'quvchi taklif etilgan. Bu 1-sinflardan taklif etilgan o'quvchilardan 27 o'quvchi kam, 3-sinflardan taklif etilgan o'quvchilardan 52 o'quvchi ko'p. Barcha uch sinfdan jami qancha a'luchi o'quvchi taklif etilgan?



- 7.** Rasmlarga doir ko'paytmalar yozing.



- 8.** Qo'shishni ko'paytirish bilan almashtiring. Hisoblang.

$$7 + 7 + 7 + 7$$

$$10 + 10 + 10 + 10 + 10 + 10$$

$$6 + 6 + 6 + 6 + 6$$

$$11 + 11 + 11$$

$$25 + 25 + 25 + 25$$

$$120 + 120 + 120 + 120$$



- 9.** Xorda qo'shiqchilar uch qator bo'lib turibdi. Birinchi qatorda 117 kishi, ikkinchi qatorda birinchi qatordagidan 9 kishi kam, uchinchi qatorda ikkinchi qatordagidan 15 kishi kam turibdi. Xorda necha kishi qo'shiq aytmoqda?